

**INSHO YOZISH KO'NIKMASI ORQALI O'QUVCHINING
YARATUVCHANLIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH (8-SINF DARSЛИGI
ASOSIDA)**

Fayzullayeva Nigina Botir qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqorg'on filiali 3-bosqich talabasi

Fayzullayevanigina665@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada insho yozish orqali o'quvchini mustaqil va ijodiy fikrlashga undash, o'quvchida kashfiyat qilishga chorlovchi g'oyalarni paydo qilish kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Insho, ijodiy ish, fiklash, yaratuvchanlik, kashfiyat, mustaqil, erkin mavzudagi, ta'limi, sinov, epigraf, reja, ilmiy mavzudagi.

Аннотация: В статье рассматриваются такие вопросы, как поощрение студента к самостоятельному и творческому мышлению путем написания эссе, а также генерация идей, побуждающих студента совершать открытия.

Ключевые слова: Эссе, творческая работа, размышление, творчество, открытие, самостоятельная, свободная тема, учебная, контрольная, эпиграф, план, научная тема.

Annotation: The article examines such issues as encouraging the student to think independently and creatively by writing an essay, and generating ideas that invite the student to make discoveries.

Key words: Essay, creative work, reflection, creativity, discovery, independent, free topic, educational, test, epigraph, plan, scientific topic.

Ma'lumki, bugungi kunda ona tili darslarining asosiy vazifasi o'quvchini mustqil, ijodiy fikrlashga yunaltirish hisoblanadi. Shu sababli insho yozish ko'nikmasiga ko'proq e'tibor qaratilishi kerak. Chunki, insho yozish orqali o'quvchida mustaqil fikrlash, g'oyalalar topish, kreativlik qobiliyatlarini shakillantirish mumkin. Insho arabcha so'z bo'lib, «yaratish», «bino qilish», «qurish» ma'nosini beradi. Hozirgi tilimizda bu so'zning ma'nosi ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan «ijodiy yozma ish» ma'nosida qo'llanadi. Insho – muallifning ma'lum bir mavzu asosida o'z fikrlarini yozma shaklda bayon qiluvchi kichik asar. Inshoda muallifning so'z qo'llash mahorati, fikrlash ko'nikmasi, bilim va dunyoqarashi, savodi namoyon bo'ladi. Insho – o'quvchi yaratadigan matn turi. Unda ma'lum bir mavzu mustaqil ravishda ochib beriladi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, o'quvchini insho yozish jarayoniga qiziqtirish o'qituvchining dastlabki vazifalaridan biridir. Chunki, ko'p o'quvchilar insho yozish jarayonini zerikarli mashg'ulot sifatida qabul qilib kelishmoqda. Ulardagi bu fikrni bartaraf etish va indho yozish jarayonini qiziqarli metodlar orqali "fayzli" qilish o'qituvchilarning zimmasida. Insholar hajmi o'quvchining yoshiga qarab turlichay bo'lishi mumkin. Masalan, 8-sinf o'quvchisi 5–6 sahifadan iborat insho yozsa bo'ladi. Bilimlarni boyitish yoki namoyish qilish maqsadiga ko'ra insho ikki xil bo'ladi:

- a) ta'limi (joriy) insho;

b) sinov inshosi.

Ta'limiy (joriy) insho sinfda yoki uyda yozilib, izlanishga, bilimlarni boyitish va qo'llashga, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to'g'ri bayon qilishga qaratiladi.

Ta'limiy inshoda o'quvchi tegishli mavzu bo'yicha bilimlarini mustahkamlaydi, boyitadi va namoyish qiladi. Sinov insholari o'rganilgan mavzulariga doir bilimlarni, insho yozish ko'nikma va malakalarni sinovdan

o'tkazish uchun chorak yoki o'quv yili oxirida olinadi.

Ta'limiy (joriy) insho izlanish, bilim, tafakkur va bayon qilishga asoslansà, sinov inshosi bilim, tafakkur va bayon qilishni sinaydi. Sinov inshosida manbalardan izlanishga ruxsat berilmaydi. U sinfda, o'qituvchi nazorati ostida yoziladi. Inshoning har ikkala turi ham o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi.

Insho yozish ham faoliyat, aniqrog'i, nutqiy faoliyat. U ham reja asosida amalga oshiriladi. Inshoni yozishga tayyorgarlik jarayoni ham, inshoning o'zi ham rejasiz amalga oshirilsa, u sifatsiz chiqishi muqarrar. Demak, insho yozish uchun tayyorgarlik jarayoni qat'iy reja asosida amalga oshiriladi. Inshoning o'zi ham puxta reja asosida yozilishi lozim. Har qanday ijodiy ish kabi insho rejasini ham uch qismdan iborat bo'ladi:

1. Kirish.
2. Asosiy qism.
3. Xulosa.

Kirish inshoning boshlang'ich qismi, unda o'quvchi mavzu haqidagi umumiy fikrlarini bayon qiladi. Asosiy qismda maqsadga o'tiladi. Bu qism yana ichki kichik qismlardan tashkil topadi. Ularning miqdori birdan ortiq

bo'ladi. Xulosa yakunlovchi qism bo'lib, unda o'quvchi asosiy qismdan kelib chiqadigan o'z fikri – xulosasini lo'nda bayon etadi.

Insho yozish va uning rejasini tuzishni men uy qurish jarayoni miqyosida tushintirish va shu jarayon orqali qiziqarli o'yinlar topish usulini yaratdim. Ya'ni, bunda o'quvchiga insho mavzusi berilgandan so'ng, unga reja tuzish uchun o'qituvchi uy maketini keltiradi va uyni uch qismga bo'ladi: uyning poydevori-kirish, g'isht terilgan qismi-asosiy qism, tom qismi-xulosa. Va bu orqali "Uyni qur" o'yinini o'ynash mumkin. Bu o'yinni guruh bo'lib bajarish ham mumkin, ya'ni, sinf uch guruhga bo'linadi va har bir guruhga uyning uch qismi bo'lib beriladi va tayyor bo'lgan "uy qismlari" birlashtiriladi. Insho yozishda to'g'ri mavzu berilishi ham muhim. Insho mavzusi o'quvchilarining yoshiga ruhiyatiga qarab berilishi kerak. Insholar ham mavzusiga ko'ra ucg guruhga bo'linadi:

1. Adabiy mavzudagi insholar;
2. Ilmiy mavzudagi insholar;
3. Erkin mavzudagi insholar.

Muayyan badiiy asar, undagi qahramonlar haqidagi insho adabiy inshodir. Bunday mavzudagi inshoda biror badiiy asar yoki undagi qahramonlar taqdiri adibning

badiiy mahorati bilan bog'lab, manbalarga tayanib tahlil qilinadi.

Bir masala turli mavzudagi inshoda har xil ifodalanishi mumkin. Ilmiy inshoda berilgan mavzu biror fan nuqtayi nazaridan ilmiy nutqda yoritiladi. Ilmiy inshoda terminlar, ilmiy dalil va tushunchalardan keng foydalaniladi. Unda axborot aniq va lo'nda ifodalanishi, tushunarli bo'lishi lozim.

O'quvchining adabiyot darsligidagi ma'lumotlarga bevosita daxldor bo'lmay, umuman, ma'lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr-mulohazalarini aks ettiruvchi insho erkin mavzudagi inshodir. Insho yozish jarayonini boshlashdan oldin mavzuga aloqador ma'lmotlar, badiiy vositalar to'plansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu vositalar orqali o'quvchining fikrlashi osonlashadi. Masalan, "Jannat onalar oyog'i ostidadir" mavzusida insho yozish; birinchi, mavzu bo'yicha maqollar, hikmatli so'zlar, rivoyat yoki hikoyatlar toppish kerak. Keyin esa reja qismiga o'tiladi. Bu erkin mavzudagi insho bo'lganligi sababli soddha reja tuzish ma'qulroqdir.

Reja:

- 1.Ona-insonning eng yaqin do'sti.
- 2.Onani rozi qilgan inson jannat kalitiga egadir.
- 3.Onalarga izzat-ikrom ko'rsatish har bir farzand burchi.

8-sinf darsligida quyidagi savol va topshiriqlar orqali o'quvchining insho yizish ko'nikmasini o'stirishga harakat qilingan:

Savol va topshiriqlar

1. Insho nima? U boshqa ijodiy ishlardan qaysi jihatni bilan farqlanadi?
2. Inshoda badiiy asar va boshqa manbalardan aynan olingan o'rinnar qanday berilishi kerak?
3. Inshoda nega ikki o'quvchining bir mavzuda yozgan fikri aynan bir xil bo'lmaydi?
4. Ikki o'quvchining ayni bir mavzuda yozgan inshosida qanday umumiyliliklar, o'xshashliklar bo'lishi mumkin?

5. Inshoning iddiy yozma axborot bilan qanday o'xshash va farqli tomonlari bor?

33-mashq. Adabiyot darsida yaqinda o'tilgan biror badiiy asar qahramoni haqida insho mavzusini tuzing.

34-mashq. «Inshoning turlari va ularning xususiyatlari» mavzusida og'zaki ma'ruza uchun matn tayyorlang va uni ifodali bayon qiling.

Uyga vazifa

32-mashq. «Onajonim – mehribonim» mavzusida insho yozish uchun uyda tayyorgarlik ko'ring. Ishni quyidagi tartibda amalga oshiring:

- 1) onalar haqida donolar fikrlarini o'rganing; rivoyat, hikoyat va maqollar, onalarga bag'ishlangan zamонавији she'riy va nasriy asarlar bilan chuqur tanishing;
- 2) o'zlashtirgan fikrlaringizni tasniflab, tartibga keltirib oling;
- 3) fikrlar tasnifi va tartibi asosida reja tuzing;
- 4) rejangizda katta masalalardan kichik masalalar (umumiyyadan xususiy)ga o'tib borishga harakat qiling.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini oshirish bizning dolzarb masalarimizdan bir va bu masalani insho orqali yengillatishimiz mumkin. Insho o'quvchining nafaqat yozma nutqini balki og'zaki nutqini ham o'stiradi. O'quvchi o'zi yozgan g'oyalarni og'zaki bayon ham qila oladi, chunki bu g'oyalalar uning o'ziga tegishli. O'quvchi insho yoza oldimi, u bir asar yarata oldi demakdir. Insho orqali shakllangan yaratuvchanlik mahorati o'quvchini kelajakda yangi kashfiyotlar qilishiga poydevor bo'lishi

mumkin. Biz kelajagimizni mustaqil fiklay oladigan, kreativ yoshlar bilan ta'minlashimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.8-sinf "ona tili" darsligi. Toshkent-2019

2.Yo'ldoshev R.A, Rixsiyev M, M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi.-Toshkent:2018

3.Mavlonova K.M, "O'quvchilar inshoni qanday yozmoqda?" , Til va adabiyot ta'lim,- Toshkent:2017

4.B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova, "O'zbek tili o'qitish metodikasi" , Toshkent-2010

5. Madayev O, va boshq. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. Metodik qo'llanma-Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.-104b

6. Akmalova S. Ta'lim nazariyasi didaktika masalalari bo'yicha o'quv qollanma, Namangan – 1993.